

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY O'ZBEKISTON TARIXIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Seytimbetov Mnsizbay

*Ózbekiston va Qoraqalpog'iston tarix kafedrası docenti, tarix ilimlar
kandidati*

A.Bazarbaeva

tarix bakalavr 2 bosqichi talabasi

*Qoraqalpoq Davlat universiteti va A.Sarsenbaeva tarix bakalavr 1
bosqichi talabasi*

Annataciya: *Bu maqola orqali biz sizga XIX asr O'zbek xalqi tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan din va jamoat arbobi, dramaturg, noshir, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri, "Haq olinur, berilmas!" misralari muallifi Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi, buyuk mehnatlari haqida so'z yuritamiz. Mahmudxo'ja Behbudiy milliy ma'rifatparvar, 18 yoshidan qozixonada mirzalik qilgan, qozi, muftiy darajasiga ko'tarilgan buyuk ziyoli shaxslardan biri. Uning tarbiyaga oid asarlari, shuningdek kutubxonasi alohida diqqatga sazavor. Shunday ekan bu maqolamiz davomida Behbudiy asarlari va kutubxonasi haqida to'liq keltirib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik harakati, Behbudiy kutubxonasi, "Padarkush" asari, "Haq olinur berilmas!"*

Din va jamoat arbobi, dramaturg, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy O'zbekiston tarixida katta ahamiyatga ega. Uning xalq manfaati yo'lida qilgan mehnatlari, ezgu ishlari tahsinga loyiq. Olim mehnatlarini qadrlash, uning hayoti va ijodini yosh avlodga yetkazish va tanitish maqsadida yurtimizda jadidlarimiz nomini mangulashtirish maqsadida har xil ishlar olib borilmoqda. Shular qatoriga Behbudiy me'roslarini o'rganish, asarlari mohiyatini yosh avlodga uqtirish, 2020-yili muhtaram prezidentimiz tomonidan Behbudiy tavalludining 145 yilligini keng turda nishonlash kabi olib borilayotgan ishlarni keltirib o'tishimiz joiz. Yurtimizda jadidlar hayotini namoyon qilgan "Jadidlar" to'plami yosh kitobxonlarga namoyon qilindi. 2020-yili 30-sentabrda bo'lsa davlatimiz rahbari M. Behbudiy kabi jadidlarimizni erkinlik uchun qilgan fidokorligi, milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishdagi hissasi o'laroq "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlaganini bildirdi. O'z davridayoq "Turkston jadidchilik harakati otasi", deb e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning qilgan xizmatlari e'tirof etilib, davlatimiz rahbari tomonidan munosib

taqdirlandi. Buyuk davlat arbobi, jadidchilik harakati yetakchisi, dramaturg Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yili 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga keladi. U Yassaviy avlodidan bo'lib, 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko'tariladi. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785-yillar) Samarqandga kelib qolgan. Oiladagi muhit undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishning tezroq ro'yobga chiqishiga imkon tug'dirdi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Aynan shu oiladagi muhit kelajakda buyuk davlat yo'lida xizmat qilgan shaxsning ezgu ishlariga turtki bo'ldi. U keyinchalik bu haqda so'zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan "Hidoya" ("Islom huquqiga sharhlar") asarining o'z taqdirida katta rol o'ynaganini alohida qayd etgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot va tarix fanlari, shuningdek siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'illangan. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib borgan. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o'rganib islom tarixi va nazariyasi bilan shug'ullandi. U 1899-yili hajga bordi va muftiy unvoniga ega bo'lib qaytdi. Haj bahonasida Misr va Istanbul shaharlarida bo'ldi. Bu yerda davom etayotgan islohotlar so'zsiz uning dunyoqarashida burulish yasadi. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'lib, Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. O'sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi gazeta va jurnallar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari ham mazkur nashrlarda chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turdi.

Xususan, qrim tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo'lgan "Tarjumon" gazetasi M. Behbudiyning buyuk ma'rifatchi va o'zbek milliy jadidchilik yo'nalishining otasi darajasiga ko'tardi. Shuningdek, Behbudiyning ma'rifatparvarligi haqida Vadud Mahmudning "Tanlangan asarlar" da quydagicha keltirilgan; "Mahmudxo'janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o'run olishga munosib bir otdir." Behbudiy 1914-yili yana Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o'quv qo'llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to'siqlarga uchrab "jadidlar rahnomasi", "dahriy" deb e'lon qilinadi. Shunga qaramay u tatar mutaffakiri Ismoil Gaspiralinig ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab quvvatlab, o'z o'lkasiga ham shunday ishlarni amalga oshirishiga kirishadi va ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga

sazavor bo'ladi. U bir qator Sharq va G'arb tillari bilan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatining tolmas targ'ibotchisi ham bo'lgan.

Albatta, Behbudiyning xalq o'rtasidagi ortib borayotgan obro'- e'tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarining ham reja va niyatlariga zid edi 1919-yilning 25-martida Behbudiy ular chaqiruvi bilan Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshida Said Olimxon farmoni bilan qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin xabar qilinadi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi. Bu Turkiston xalqi uchun katta yo'qotish edi.

Sadriddin Ayniy allomaning fojiali vafoti munosabati bilan shunday yozgan: " Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20-yil mobaynida o'zining ongi va insoniy qadru qimmati bilan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma'rifat uchun kurashga chorlab keldi."

Behbudiy og'ir davrda yashashiga qaramasdan erkin, istiqloqlik tarafdori bo'lib, hech izlanishdan to'qтамadi. U adib sifatida "Padarkush" dramasini yozdi. 1913-yilda Samarqand shahrida nashr qilingan bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag'al, xoh badavlat oilaga mansub bo'lsin) ilimli, madaniyatli bo'lishlari lozimligini qayd etgan. 1911-yilda yozilgan bu drama, dastlab 1912-yilda "Turon" gazetasida bosilgan. 1911-yilda kitob holda chop etilgan. Shundan so'ng tez fursatda Samarqand, Buxoro va Toshkent teatr sahnalarida ijro etilgan. Drama kompozitsion qurilishiga ko'ra oddiy bo'lgan holda mazmun-g'oya jihatdan ancha qamrovlidir. Xususan, undagi xarakter va shakl-shamoil mazkur janr talablariga ancha mos edi. Dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o'g'li va uning gumashtalari bo'lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlar asar g'oyasini ochishda muhim o'rin egallaydi.

Behbudiyning bu asari o'zbek dramaturgiyasiga, umuman teatriga poydevor qo'ygan asar bo'ldi. Behbudiy asarlari haqida so'z borar ekan, " Behbudiya" kutubxonasi ham katta ahamiyatga ega. Bu kutubxonaning ochilishi yurt obodligi yo'lida boshlagan ijobiy ishlaridan biridir. 1908-yili 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan birinchi kutubxona ochiladi. Biroq kutubxonaning ochilishi haqida xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda " Turkiston viloyatining gazetisi" da xabar berilgan edi. 27 bopdan iborat bo'lgan dastur kutubxonanig barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a'zolik badali 3 so'mni tashkil etgan.(1) Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug'illanishga undash bo'lgan.

Kutubxona tuzilish jihatdan xilma- xil va boy fondga ega bo'lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug'at, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin bo'lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200 jild, keyinroq 225 jildga yetgan. Kuniga 14 soat ishlagan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so'na boshladi. Bunga avvalo o'lkadagi jadidlar va qadimchilar qaram-qarashligi sabab bo'lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishini taqiqlab qo'yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yilda moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a'zodan iborat yillik yig'ilishi paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo'yishga kelishib olinadi.(2) Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, kutubxona faoliyati tugaydi. Behbudiy kutubxonani o'zining uyiga ko'chiradi va Behbudiy kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo'lga qo'yadi va ularning ro'yxati "Oyna" jurnalida e'lon qilib boriladi. (3)Mahmudxo'ja Behbudiy tariximizning g'oyat bir og'ir va murakkab davrida yashashiga qaramasdan xalqning sifatli ta'lim olishi uchun qattiq harakat qilgan, "Haq olinur berilmas!" kabi misralari orqali erkinlik va adolat uchun kurashishga undagan, yurtni savodli qilish maqsadida kutubxona-yu jadid maktablarini tashkillashtirgan mustaqil jumhuriyat g'oyasining bayroqdori hisoblanadi. Uning O'zbekiston tarixidagi o'rni shunday katta ahamiyatga egaki, biz buni Behbudiydagi vatanga bo'lgan muhabbat orqali yoki yurtimizda jadidimiz nomini oqlab, xizmatlariga ko'rsatilayotgan e'tibor orqali ko'rsak bo'ladi. Bugungi kunda yurtimizda kelajak avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda Behbudiy kabi jadid, allomalarimiz hayotini o'rganish va o'rgatish yo'lga qo'yilgan va qo'yilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov S. " O'limdan qo'rqmagan mutaffakir". " Sovet O'zbekistoni san'ati", 1989-yil, 2-son.
2. Aliev A. "Mahmudxo'ja Behbudiy". T.,1994.
3. Qosimov Behbudiy Karvonboshi. " Yoshlik" jurnali, 1990-yil, 1-son.
4. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1990-yili 19,26-yanvar.
5. Rizaev Sh. " Padarkush" yohud Samarqand tarixidan lavhalar". "Vatan" gazetasi, 1994-yil, 39-son.
6. O'zbek sovet ensiklopediyasi. 2-jild. T., 1979.